

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 03/2025.27.12.B.22.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IKRAMOV NURIDDIN BOXODIROVICH

NORIN DARYOSI HAVZASI QUYI OQIMI ALGOFLORASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Namangan - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Ikramov Nuriddin Boxodirovich

Norin daryosi havzasi quyi oqimi algoflorasi 3

Икрамов Нуриддин Боходирович

Альгофлора бассейна нижнего течения реки Нарын 21

Ikramov Nuriddin Bokhodirovich

Algoflora of the lower reaches of the Naryn River basin..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 03/2025.27.12.B.22.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IKRAMOV NURIDDIN BOXODIROVICH

NORIN DARYOSI HAVZASI QUYI OQIMI ALGOFLORASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Namangan - 2026

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/B304 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.namdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tojiboyev Sharobitdin Jamolovich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Turginov Orzimat Turdimatovich
biologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim

Toshpo'latov Yigitali Shavkatillayevich
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD 03/2025.27.12.B.22.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «__» _____ kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 106107, Namangan shahri. Boburshox ko'chasi. 161-uy. Namangan davlat universiteti majlislar zali. Tel.: (+99869) 228-85-01), faks (+99869) 228-85-02, E-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 106107, Namangan shahri. Boburshox ko'chasi. 161-uy. Namangan davlat universiteti majlislar zali. Tel.: (+99869) 228-85-01.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil «__» _____dagi №_____-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.Y.Zaynabiddinov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
b.f.d., professor.

X.R. Xoshimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD.

D.B. Dexqonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi b.f.d.,
dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida transchegaraviy daryolar havzalarining ekologik barqarorligini ta'minlash, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi, suvdan xo'jalik maqsadlarida foydalanishning keskin ortishi, sanoat va qishloq xo'jaligi oqavallari ta'siri natijasida daryo ekotizimlarida kechayotgan gidrobiologik jarayonlarni, xususan, algofloraning shakllanishi va transformatsiyasini chuqur o'rganish hamda suv havzalarini texnogen ifloslovchi manbalar ta'sirini monitoring qilishda suvo'tlardan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda suv resurslaridan oqilona va barqaror foydalanish, tabiiy ochiq suv havzalarining ekologik barqarorligini ta'minlash hamda ulardagi biologik xilma-xillikni muhofaza qilish kabi dolzarb ilmiy ishlar olib borilmoqda. Antropogen va texnogen omillarning kuchayishi daryo ekotizimlarida gidrokimyoviy ko'rsatkichlar va biologik jarayonlarning sezilarli darajada o'zgarishiga olib kelib, bu jarayonlar, avvalo, suvo'tlar florasining tarkibi, tuzilishi va rivojlanish xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli daryolar algoflorasini kompleks tadqiq etish suv ekotizimlarining hozirgi ekologik holatini ilmiy asosda baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikada daryolar algoflorasini o'rganish hamda suvo'tlar asosida suv havzalarining ekologik holatini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar izchil rivojlanmoqda. Hududlar kesimida suv ekotizimlarining algoflorasi tahlil qilinib, suvo'tlarning shakllanishi va tarqalishiga ta'sir etuvchi ekologik omillar ilmiy asosda aniqlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF – 60 sonli “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni¹ Taraqqiyot strategiyasida atrof-muhit ifloslanishini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, ekologik monitoring tizimini kuchaytirish va salbiy jarayonlarni prognozlash bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, Farg'ona vodiysining muhim suv arteriyalaridan biri bo'lgan Norin daryoning quyi oqimi algoflorasini zamonaviy algologik va gidrobiologik yondashuvlar asosida kompleks o'rganish, daryo suvo'tlarining taksonomik tarkibi asosida suvning organik moddalar bilan ifloslanish darajasini aniqlash, indikator-saprob turlarni belgilash hamda ularning tarqalish qonuniyatlarini tashqi muhit omillari bilan bog'liq holda o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 14-sentyabrdagi 446-son “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2018-yil 26-iyundagi 6-sonli “Atrof-muhitni muhofaza qilish nazorati to'g'risida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF – 60 son «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘rta Osiyoning turli suv havzalaridagi algafloorani fundamental va klassik tadqiqotlarni dastlab Hirn (1900) o‘rgangan. Bundan tashqari suv havzalar algoflorasini o‘rganish bo‘yicha V.Sladecek (1961, 1973), Zarei Darki (2009), D.Olding (2000), hamda, MDH mamlakatlarida M.Gololobova (2000), M.T.Boboyev (2018), M.S.Kulikovskiy (2016), S.S.Barinova, E.P.Belous, P.M.Sarenko (2019) tomonidan olib borilgan.

Respublikamizda Orol dengizi, Sirdaryo va Amudaryo havalari algoflorasi Ostenfeld (1908) tomonidan, O‘zbekistonda suv havzalari bo‘yicha ekologik – floristik yo‘nalishda A.M.Muzaffarov (1965), A.Ergashev (1964), Musayev (1960), X.Alimjanova (2007), A.Temirov (1996), X.Ergasheva (2017), M. Yuldasheva (2018, 2025), Z.Ismatova (2018), Y.Toshpo‘latovlar (2018) tomonidan, tuproq suvo‘tlari bo‘yicha esa Yu.To‘xtaboyeva (2019, 2025), S.Mamasoliyev (2020), O.Xusanovlar (2025) tomondan amalga oshirilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning ayrim yirik suv havzalari algoflorasi ma‘lum darajada o‘rganilgan bo‘lsada, Norin daryosi havzasining quyi oqimi algoflorasi alohida obyekt sifatida kompleks, tizimli va zamonaviy yondashuvlar asosida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Xususan, ushbu hududda algofloraning taksonomik tarkibi, ekologik va mavsumiy dinamikasi, shuningdek, indikator-saprob suvo‘tlar asosida suvning ekologik-sanitariya holatini baholash masalalari ilmiy adabiyotlarda kam yoritilgan. Norin daryosi quyi oqimi algoflorasini kompleks o‘rganish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqlarni to‘ldirish va mintaqa suv ekotizimlarining ekologik holatini ilmiy asosda baholash dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq AL-9424115044-sonli “Orol dengizining qurigan tubidagi suv havzalarining gidrobiologik tarkibini aniqlash hamda istiqbolli suvo‘tlaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish” (2025-2027) va AL-9224104319-sonli “Bioxilma-xilligi xavf ostidagi hudud sifatida Farg‘ona vodiysi florasining raqamli platformasini ishlab chiqish” (2025-2027) mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Norin daryo havzasi quyi oqimi algoflorasini taksonomik tarkibini aniqlash va suvning ekologiya sanitariya holatini baholashda indikator - saprob suvo‘tlarning ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

Norin daryo havzasi quyi oqimi algoflorasining taksonomik tarkibini aniqlash va zamonaviy konspektini tuzish;

Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining keng ko'lamli tahlilini amalga oshirish;

Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

Algofloradagi ayrim turlarning molekulyar genetik tahlilini amalga oshirish;

Norin daryosi quyi oqimi algofloraning ekologik va mavsumiy xususiyatlarini aniqlash;

Indikator-saprob suvo'tlari orqali suvning ekologik-sanitariya holatini baholash;

Tadqiqotning obyekti sifatida Norin daryosi quyi oqimi algoflorasi olingan.

Tadqiqotning predmetini Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining taksonomiyasi, floristikasi, ekologiya-sanitariya va monitoringi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada algologik, mikrobiologik, molekulyar- genetik, sanitar-gidrobiologik va qiyosiy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Norin daryosi quyi oqimi algoflorasi 7 ta bo'lim, 16 ta sinf, 48 ta tartib, 80 ta oila, 153 ta turkumga mansub 298 ta tur va tur xilari (8 ta variatsiya, 1 ta forma) aniqlangan;

Norin daryosi quyi oqimi algoflorasi bilan O'zbekiston ayrim suv havzalari algoflorasining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan va o'xshash hamda Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining o'ziga xos turlari aniqlangan;

Norin daryosi quyi oqimidan O'zbekiston algoflorasi uchun yangi 20 ta tur aniqlangan;

Algofloraning turlar tarkibining ekologik guruhari aniqlangan hamda fasllar davomida va oqim bo'ylab miqdoriy o'zgarishlari ochib berilgan;

Norin daryosi quyi oqimi algoflorasi tarkibidagi indikator-saprob suvo'tlarining tarqalishi va saproblik darajalari aniqlangan;

suvning saproblik indeksi (Si) hisoblab chiqilgan va saproblik zonalarini aniqlash asosida ekologik-sanitariya holati baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining tur tarkibi inventarizatsiya qilingan va ular asosida tadqiqot hududining zamonaviy tur hosil bo'lish jarayoni kechayotgan algologik hudud ekanligi asoslangan;

Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining 153 turkumga mansub 298 tur haqidagi ma'lumotlar Bioxilma-xillik bo'yicha global axborot tizimi - GBIF (www.gbif.org) bazasiga va molekulyar-genetik tahlillar asosida olingan nukleotid ketma-ketliklari xalqaro genetik ma'lumotlar bazasiga GenBank (NCBI) kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy usullarga muvofiqligi, olingan natijalarni yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ma'lumotlarni statistik va qiyosiy tahlil etilganligi, tadqiqotlar yetakchi ilmiy tashkilotlar – Rossiya FA Pushino Biologik tadqiqotlar ilmiy markazi, Shirshov nomidagi Okeanologiya institutlari bilan hamkorlikda olib borilganligi, tadqiqot natijalari va materiallari bioxilma-xillik bo'yicha ma'lumotlarning global tizimi (GBIF, www.gbif.org) va GenBank, NCBI xalqaro genetik ma'lumotlar bazasiga joylanganligi hamda O'zR Botanika institutining "Suv havzalari suvo'tlar florasi"

fondiga topshirilganligi, amliy natijalarni vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlaganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy molekulyar-genetik yondashuvlar klassik gidrobiologik va algologik usullar bilan uyg'un holda qo'llanilib, Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining taksonomik xilma-xilligi kompleks ravishda o'rganilganligi, Farg'ona vodiysi suv havzalari algoflorasining tarkibi, tuzilishi va tarqalish qonuniyatlarini aniqlashtirilganligi, hudud bioxilma-xilligi bo'yicha mavjud ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy bo'shliqlarni to'ldirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ekologik xususiyatga bog'liq hodisani aniqlash bilan birinchi marta suvning saproblik indeksi (Si) hisoblab chiqilgan, bu esa Norin daryosi suvining sifati baholangan va saproblik zonalarini aniqlashda katta amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan ifodalanib, Farg'ona vodiysida suv ekotizimlari mikrosvuotlarining taksonomik xilma-xilligi va geografik tarqalishi bo'yicha olingan yangi ma'lumotlar suv havzalarining ekologik holatini biomonitoring qilish va bioindikatsiyalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Norin daryosi quyi oqimi algoflorasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Norin daryosi quyi oqimi algoflorasi bo'yicha ma'lumotlar to'plami Global bioxilma-xillik axborot tizimiga (GBIF, <https://doi.org/10.15468/4vjn85>) joriy etilgan (O'zRFA Botanika institutining 2024 yil 7 noyabrdagi №018-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Farg'ona vodiysi suv havzalari – daryo va kanallar algoflorasining geografik tarqalishini ko'rsatuvchi global axborot bazasini boyitish imkonini bergan;

molekulyar - genetik tahlillar asosida olingan barcha algofloristik turlarga oid barcha nukleotidlar ketma-ketliklari PP937762.1; PP937763.1; PP937764.1 qayd raqamlari ostida NCBI GenBank platformasiga joylashtirilgan (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov>). Natijada, ayrim turlarning molekulyar genetik tahlili, filogeniyasi va evolyutsion munosabatlarini aniqlashtirishda xalqaro miqyosda foydalanish hamda integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish bo'yicha yangi ma'lumotlarni olish imkonini bergan;

Norin daryosi quyi oqimi suvotlari florasining yagona ma'lumotlar bazasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 13-dekabrdagi 4/1255–2766-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakat suv havzasi algoflorasini to'liq inventarizatsiya qilish, Farg'ona vodiysi suv havzalari monitoringini yuritish imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Norin daryosi quyi oqimining algologik tadqiqotlar tahlili, tadqiqot ob'yekti va metodlari va fizik - kimyoviy ko'rsatkichlari”** deb nomlangan birinchi bobi mahalliy va xorijda olib borilgan tadqiqotlar tahlili, tadqiqot obykti va metodlariga bag'ishlangan.

Tadqiqotlar 2022–2025 yillar davomida Norin daryosining quyi va o'rta oqimlarida joylashgan 22 ta kuzatuv nuqtasida olib borildi va 400 dan ortiq algologik namunalar yig'ildi.

Dissertatsiyaning **“Norin daryosi havzasi quyi oqimi algoflorasining taksonomik tahlili va zamonaviy konspekti”** deb nomlangan ikkinchi bobida Norin daryosi quyi oqimi havzasida olib borilgan maqsadli dala tadqiqotlari natijalari umumlashtirilgan bo'lib, algofloraning taksonomik tarkibi, yangi topilmalar va ularning zamonaviy konspekti yuzasidan olingan natijalar keltirilgan.

Bobning birinchi bo'limida 2022–2025-yillarda Norin daryosi quyi oqimi algoflorasi amalga oshirilgan maqsadli algologik tadqiqotlari va GBIF, AlgaeBase, ACSSI, DiatomBase xalqaro bazalar tahlil etish natijasida Norin daryosi quyi oqimi algoflorasi 7 ta bo'lim, 16 ta sinf, 48 ta tartib, 80 ta oila, 153 ta turkunga mansub 298 ta tur va tur xilari (8 ta variatsiya, 1 ta forma) aniqlandi. Taksonomik tahlil algofloraning asosiy qismini Heterokontophyta (129 tur, 43,29%), Cyanobacteria (83 tur, 27,86%) va Chlorophyta (49 tur, 16,5%) tashkil etishini ko'rsatdi. Shuningdek, Charophyta (25 tur, 8,4%), Euglenophyta va Dinoflagellata (har biri 5 tadan tur, 1,68%), Rhodophyta (2 tur, 0,67%) bo'limlari kamroq ulushga ega ekanligi aniqlandi (batafsil ma'lumot dissertatsiyada keltirilgan). Euglenophyta va Dinoflagellata bo'limlari algoflorada kam ulushga ega bo'lib, har ikkisi 5 tadan tur bilan ifodalandi (1-jadval). Tahlil natijalari Norin daryosi quyi oqimi algoflorasini to'liq inventarizatsiyalash va algofloraning xilma-xilligi bo'yicha olingan natijalar “Bioxilma-xilligi xavf ostidagi hudud sifatida Farg'ona vodiysi algoflorasini raqamli platformasini ishlab chiqish va istiqbolli suvo'tlaridan foydalanish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Bobning ikkinchi bo'limida O'zbekiston va tadqiqot hududi algoflorasi uchun avval qayd etilmagan 20 turning (4 bo'lim, 6 sinf, 10 tartib, 14 oila va 17 turkum) yangi o'sish maydonlari aniqlandi. Natijalar ikki yo'nalishda tavsiflanib, O'rta Osiyo uchun 3 tur, O'zbekiston algoflorasi uchun esa 17 tur yangi topilma sifatida

keltirildi. Xususan, Sphaeropleales va Oscillatoriales kabi tartiblarga mansub ayrim taksonlarning Norin daryosi hamda Farg‘ona vodiysi yirik kanallarida ilk bor qayd etilishi, algofloraning zamonaviy tur tarkibini boyitishi bilan birga, mintaqaviy bioxilma-xillik va gidroekologik holatni baholashda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

1-jadval.

Norin daryosi havzasi quyi oqimi algoflorasining taksonmik tarkibi.

№	Bo‘limlar	Sinf	Tartib	Oila	Turkum	Tur va tur xili	Turlarning jami soni %
1	Cyanobacteria	1	10	16	37	83	27,86
2	Heterokontophyta	5	19	31	61	129	43,29
3	Chlorophyta	3	9	19	34	49	16,5
4	Euglenophyta	1	1	2	5	5	1,68
5	Dinoflagellata	1	2	3	3	5	1,68
6	Charophyta	3	5	7	11	25	8,4
7	Rhodophyta	2	2	2	2	2	0,67
Jami		16	48	80	153	298	100

Bobning uchinchi bo‘limida Norin daryosi quyi oqimi algofloraning zamonaviy konspekti keltirildi. Konspekt dala materiallari, ACSSI, VKM va ACNamSU, GBIF va AlgaeBase xalqaro ma’lumotlar bazalari hamda yetakchi adabiyot manbalarining tanqidiy tahliliga asoslangan bo‘lib, morfologik tavsifi, tarqalishi, ekologiyasi kabi ma’lumotlar algofloraga bag‘ishlangan davlat kadastrini yaratish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning “**Norin daryosi quyi oqimi havzasi algoflorasining keng ko‘lamli tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobi klaster, strukturaviy, biomorfologik va biologik spektri, molekulyar-genetik hamda qiyosiy tahlillarga bag‘ishlangan.

Bobning birinchi bo‘limida Norin daryosi va undan suv oluvchi asosiy kanallar algoflorasining o‘zaro o‘xshashlik va farqlanish darajasini aniqlash maqsadida klaster tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot hududida algoflora tarkibi, gidrologik rejim, ekologik sharoitlar va antropogen ta’sir darajasi bo‘yicha farqlanadigan beshta klaster hududi ajratildi (1-rasm).


Klaster tahlil uchun algofloraning 298 turi bo‘yicha tuzilgan ma’lumotlar matritsasi asosida Jaccard o‘xshashlik koeffitsienti hisoblandi va UPGMA metodi yordamida dendrogramma qurildi (2-rasm).

Natijalarga ko‘ra, Norin daryosi (A) bilan Shimoliy Farg‘ona kanali (D) eng yuqori floristik o‘xshashlikka ega bo‘lib, birlamchi klasterni hosil qildi. Bu holat Shimoliy Farg‘ona kanalining algoflorasi asosiy suv manbai bo‘lgan Norin daryosi bilan bevosita gidroekologik bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ikkinchi darajali klasterga Katta Namangan kanali (B) kirib, u ham Norin daryosi bilan yuqori o‘xshashlik

ko'rsatdi. Katta Farg'ona kanali (C) va Katta Andijon magistral kanali (E) esa nisbatan alohida klasterlarni tashkil etdi va ularning Norin daryosi bilan floristik o'xshashligi pastroq ekanligi aniqlandi. Bu holat kanallarning geografik uzoqligi, suv oqimi yo'nalishining uzunligi va antropogen ta'sirning kuchayishi bilan izohlandi.



1-rasm. Tadqiqot hududida klasterlarni joylashishi. A) Norin daryosi; B) Katta Namangan kanali; C) Katta Farg'ona kanali; D) Shimoliy Farg'ona kanali va E) Katta Andijon magistral kanali



2-rasm. Tadqiqot hududining 5 ta klaster hududlarining o'xshashlik dendrogrammasi

Klaster hududlar kesimida yetakchi turkumlar tahlili Norin daryosi va unga yaqin kanallarda *Phormidium*, *Nitzschia*, *Navicula*, *Cymbella*, *Fragilaria* turkumlarining ustunligini ko'rsatdi. O'xshashlik va farqlarni aks ettiruvchi 2-jadval ma'lumotlari klaster hududlar orasida tur tarkibining sezilarli darajada differensiyalashganligini tasdiqladi va klaster hududlar kesimida yetakchi turkumlar tahlili bo'yicha *Phormidium*, *Nitzschia*, *Navicula*, *Cymbella*, *Fragilaria* ustunligi aniqlandi. Olingan natijalar algofloraning bioindikator sifatida suv

havzalarining ekologik holatini baholash va monitoring qilishda samarali qo‘llanishi mumkinligini asoslaydi.

2-jadval

Klasterlar hududlardagi turlarning o‘zaro farqi.

	A	B	C	D	E
A					
B	215				
C	211	146			
D	220	170	128		
E	165	154	142	140	

Dissertatsiyaning “**Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining strukturaviy tahlili**” deb nomlangan uchinchi bob, ikkinchi bo‘limida, Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining strukturaviy tuzilishi floristik tahlilning klassik usullari asosida baholandi. Algofloraning tizimli xilma-xilligini tavsiflashda Tolmachev (1974) tomonidan taklif etilgan “flora nisbati” ko‘rsatkichlari – oilalardagi o‘rtacha turlar soni, turkumlardagi o‘rtacha turlar soni hamda oilalardagi o‘rtacha turkumlar soni qo‘llanildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, tadqiqot hududi algoflorasida jami 298 tur, 153 turkum va 80 oila qayd etilib, umumiy holda oilalardagi o‘rtacha turlar soni 3,72, turkumlardagi o‘rtacha turlar soni 1,94 va oilalardagi o‘rtacha turkumlar soni 1,91 ni tashkil etdi (3-jadval).

3-jadval.

Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining flora nisbati

№	Bo‘limlar	Flora nisbati		
		Tur/oila	Tur/turkum	Turkum/oila
1	Cyanobacteria	83/16	83/37	37/17
		5,18	2,24	2,17
2	Euglenophyta	5/2	5/5	5/2
		2,5	1	2,5
3	Dinoflagellata	5/3	5/3	3/3
		1,66	1,66	1
4	Heterokontophyta	129/31	129/61	61/31
		4,16	2,11	1,96
5	Chlorophyta	49/19	49/34	34/19
		2,57	1,44	1,78
6	Charophyta	25/7	25/11	11/7
		3,57	2,27	1,57
7	Rhodophyta	2/2	2/2	2/2
		1	1	1
Jami		298/80	298/153	153/80
		3,72	1,94	1,91

Bo‘limlar kesimida eng yuqori tur/oila koeffitsienti Cyanobacteria (5,18) va Heterokontophyta (4,16) bo‘limlarida kuzatildi, bu ularning taksonomik jihatdan yaxshi differensiyalashganligini ko‘rsatadi. Charophyta (3,57) va Chlorophyta (2,57) bo‘limlari o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega bo‘lsa, Rhodophyta (1,0) eng past qiymatni namoyon etdi. Tur/turkum ko‘rsatkichi bo‘yicha yetakchi o‘rin Charophyta (2,27) va Cyanobacteria (2,24) bo‘limlariga to‘g‘ri keldi.

Algofloraning strukturaviy ko'rsatkichlari Zarafshon daryosining o'rta va quyi oqimi, Janubiy Tojikiston, Sangzor daryosi, Belarussiya, Eron va Ural hududlari bilan qiyosiy solishtirganda o'rtacha qiymatlarga yaqin, ammo o'ziga xos kombinatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Bu holat Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining mahalliy ekologik sharoitlar ta'sirida shakllangan mustaqil strukturaviy xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning **“Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining biomorfologik tahlili”** deb nomlangan 3.3-bo'limda 2022–2025 yillarda 22 ta kuzatuv nuqtasidan yig'ilgan 400 dan ortiq algologik namunalar asosida suvo'tlarning biomorfologik xususiyatlari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra biomorfologik tahlilda Cyanobacteria, Heterokontophyta, Chlorophyta, Euglenophyta va Dinoflagellata bo'limlari vakillarining hujayra shakli, koloniya va ipsimon tuzilmalari, xloroplastlarning joylashuvi, shilliq qavatlarining mavjudligi hamda ko'payish usullari baholandi. Olingan natijalar Norin daryosi quyi oqimi algoflorasida morfologik xilma-xillik yuqori ekanligini va turlarni aniqlashda biomorfologik belgilarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi va algofloraning biologik spektri bo'yicha turlar sonining eng yuqori ko'rsatkichi Norin daryosida (290 tur), eng past ko'rsatkich esa Katta Andijon magistral kanalida (165 tur) qayd etildi (4-jadval).

4-jadval


Norin daryosi quyi oqimi havzasi algoflorasining suv havzalari bo'yicha taqsimlanishi.

Suv havzasi	Bo'lim	Sinf	Tartib	Oila	Turkum	Tur	%
Norin daryosi	7	16	49	78	141	290	97,3
Katta Farg'ona kanali	7	14	41	64	114	228	76,5
Katta Namangan kanali	7	13	44	66	114	215	72,1
Shimoliy Farg'ona kanali	7	13	43	55	122	220	73,8
Katta Andijon magistral kanali	7	11	36	51	88	165	55,3

Algoflora tarkibida yetakchi sinflar spektrini Bacillariophyceae (116 tur) va Cyanophyceae (83 tur) tashkil etib, ushbu sinflar barcha o'rganilgan suv havzalarida ustunlik qildi. Bu holat diatom va ko'k-yashil suvo'tlarning gidroekologik sharoitlarga yuqori moslashuvchanligi bilan izohlanadi.

Oilalar spektri tahlili algoflora tarkibida kam polimorf va monotip oilalarning ko'pligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, 5 va undan ortiq turlarni birlashtirgan polimorf oilalar jami algofloraning 66,77 % ini tashkil etib, floraning asosiy qismini shakllantirdi (3-rasm).

Turkumlar spektrida esa 2–3 turga ega bo'lgan kam polimorf hamda 1 turli monotip turkumlar ustunlik qilgani aniqlandi, bu esa algoflorada turkumlar xilma-xilligi yuqori, ammo yaqqol dominant turkumlar nisbatan kam ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, *Phormidium*, *Nitzschia*, *Navicula*, *Fragilaria* va *Cymbella* turkumlari turlar soni bo'yicha yetakchi bo'lib, jami 115 turni birlashtirdi.




3-rasm. Algoflora tarkibidagi oilalarning umumiy spektri

Dissertatsiyaning “**Norin daryosi quyi oqimi havzasi ayrim turlarining molekulyar - genetik tahlilari**” deb nomlangan 3.4-bo‘limda, Norin daryosi quyi oqimidan ajratilgan ayrim yashil suvo‘tlar shtammlarining morfologik identifikatsiyasi molekulyar-genetik usullar asosida tekshirildi. Molekulyar tahlillar natijasida Scenedesmaceae oilasiga mansub 4 ta shtamm ajratilib, *Tetrademus obliquus*, *Neodesmus danubialis* va *Coelastrella tenuithec*a ekanligi aniqlandi.

ITS2 ketma-ketliklari asosida qurilgan filogenetik daraxtda ushbu shtammlar autentik shtammlar bilan yuqori statistik ishonchlilik (BP = 99-100%) bilan klasterlandi hamda genetik farqlar aniqlanmadi (4-rasm).

Olingan natijalar Scenedesmaceae oilasi vakillarida morfologik plastiklik yuqori ekanligini va faqat morfologik belgilarga asoslangan identifikatsiya yetarli emasligini ko‘rsatdi. ITS2 DNK shtrix-kodi chuchuk suv algoflorasini aniqlash va ekologik monitoringda samarali molekulyar marker sifatida tavsiya etiladi. Birinchi marta Norin daryosi fitoplanktonida *C. tenuithec*a, *N. danubialis* va *T. obliquus* turlarining mavjudligi molekulyar-genetik jihatdan tasdiqlandi.

Dissertatsiyaning “**Norin daryosi quyi oqimi algoflorasini qiyosiy tahlili**” deb nomlangan uchinchi bob, beshinchi bo‘limda, Norin daryosi quyi oqimi hamda undan suv oluvchi Katta Farg‘ona, Katta Namangan, Shimoliy Farg‘ona va Katta Andijon magistral kanallari algoflorasi qiyosiy tahlil qilindi. Eng yuqori bioxilma-xillik Norin daryosida qayd etilib, u umumiy ro‘yxatning 97,3% ini tashkil etdi (290 tur) va qolgan suv obyektlariga nisbatan taksonomik boyligi bilan ajralib turishi aniqlandi.



4-rasm. ITS2 tahlili natijalariga ko‘ra, barcha o‘rganilgan shtammlar filogenetik tahlili.

Suv obyektlari o‘rtasidagi floristik o‘xshashlik Sorensen–Chekanovskiy indeksi (Cs) yordamida baholanib, Norin daryosi algoflorasining eng yuqori o‘xshashligi Katta Farg‘ona kanali bilan kuzatildi (Cs = 84,94%), keyingi o‘rinlarda Shimoliy Farg‘ona kanali (Cs = 68,62%), Katta Namangan kanali (Cs = 66,53%) va Katta Andijon magistral kanali (Cs = 64,61%) qayd etildi. Natijada 7 bo‘lim, 12 sinf, 35 tartib, 47 oila, 73 turkumga mansub 153 tur va tur xillari barcha suv havzalari uchun umumiy ekanligi aniqlandi.

Norin daryosi quyi oqimi algoflorasi O‘rta Osiyoning qator suv havzalari bilan ham taqqoslandi va ularning o‘zaro o‘xshashlik koeffitsiyentlari umumlashtirildi. Eng yuqori yaqinlik Farg‘ona vodiysi sug‘orma kanallari (Cs = 31,74%), Andijon suv ombori (Cs = 30,72%), Ohangaron daryosi (Cs = 28,34%) hamda Shohimardonsoy–Marg‘ilonsoy (Cs = 27,72%) bilan kuzatildi (5-jadval).

5 - jadval

**O'rta Osiyoning ayrim suv havzalari bilan Norin daryosi quyi oqimi
algoflorasining qiyosiy tavsifi (Sorensen indeksi bo'yicha)**

O'rta Osiyo suv havzalari	Suv havzasidagi turlar soni	O'zaro o'xshash turlar	O'xshashlik koeffitsiyenti (C _s)
Norin daryosi yuqori oqimi (Muzaffarov, 1958)	421	97	26,98
Ohangaron daryosi (Eshmurodova, 2010)	210	72	28,34
Andijon suv ombori (Ergasheva, 2017)	418	110	30,72
Zarafshon daryosining o'rta oqimi (Toshpo'latov, 2018)	331	58	18,44
Zarafshon daryosining quyi oqimi (Mamanazarova, 2018)	294	76	25,67
Sangzor daryosi (Ismatova, 2018)	522	88	21,46
Farg'ona vodiysi sug'orma kanallari (Ergashev, 1958)	288	93	31,74
Shohimardonsoy-Marg'ilonsoy daryosi (Yuldasheva, 2019)	308	84	27,72
Oqbura daryosi (Shayimkulova, 2007)	211	56	22,01
Buhoro viloyati kollektorlari (Rashidov, 2007)	389	68	19,50

Dissertatsiyaning “**Norin daryosi quyi oqimi havzasi algoflorasining mavsumiy va ekologik xususiyatlari**” deb nomlangan to'rtinchi bobida Norin daryosi quyi oqimi havzasida algofloraning yil fasllari bo'yicha dinamikasi hamda turlar tarkibining asosiy ekologik omillar (sho'rlanish, pH va hayotiy shakllar) bilan bog'liq xususiyatlari yoritilgan bo'lib, uning “Norin daryosi quyi oqimi havzasi algoflorasi bioxilma-xilligining mavsumiy ko'rsatkichlari” 4.1-bo'limida Norin daryosi quyi oqimi havzasi algoflorasining mavsumiy dinamikasi yilning to'rt fasli davomida olib borilgan kompleks algologik tadqiqotlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijasida jami 7 bo'limga mansub 298 tur va tur xillari aniqlanib, ularning mavsumlar bo'yicha notekis taqsimlanishi qayd etildi (6-jadval).

6-jadval

Algoflora taksonlarining sonini yil mavsumlari davomida o'zgarishi

Bo'limlar	Jami taksonlar		Turlar soni			
			Bahor	Yoz	Kuz	Qish
Cyanobacteria	83	27,86	49	66	40	11
Heterokontophyta	129	43,29	70	72	69	37
Chlorophyta	49	16,5	27	29	30	5
Euglenophyta	5	1,68	1	5	5	-
Dinoflagellata	5	1,68	4	5	3	-
Charophyta	25	8,4	19	17	15	6
Rhodophyta	2	0,67	2	1	1	-
Jami	298	100	172	195	166	59

Bahor mavsumida algofloraning 172 turi aniqlanib, bu davrda suvning nisbatan past harorati va oqim tezligi sharoitida asosan Heterokontophyta va Cyanobacteria bo'limlari ustunlik qildi. Yoz mavsumida suv haroratining oshishi va yorug'likning ko'pligi natijasida algofloraning turlar xilma-xilligi maksimal

darajaga yetib, 195 turni tashkil etdi; bunda ko‘k-yashil, diatom va yashil suvo‘tlarning faol rivojlanishi kuzatildi. Kuz mavsumida 166 tur aniqlanib, algofloraning tarkibi nisbatan barqaror saqlanib qoldi. Qish mavsumida esa past harorat, suv oqimining kamayishi va muzlash holatlari ta’sirida algofloraning biologik xilma-xilligi keskin kamayib, 59 tur qayd etildi va diatom suvo‘tlarning ustunligi namoyon bo‘ldi.

Umuman olganda, Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining mavsumiy o‘zgarishlari suvning gidrofizik va gidrokimyoviy ko‘rsatkichlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bahor-yoz davrida bioxilma-xillikning ortishi, qish mavsumida esa keskin kamayishi bilan xarakterlanadi.

Dissertatsiyaning “**Norin daryosi havzasi quyi oqimi algoflorasining ekologik xususiyatlari**” deb nomlangan bobning ikkinchi bo‘limida Norin daryosi quyi oqimi havzasi algoflorasining ekologik xususiyatlari suv o‘tlarining bioindikatorlik ahamiyati asosida kompleks tahlil qilindi. Tadqiqotlar Norin daryosi va undan suv oluvchi kanallarning 6 ta doimiy kuzatuv nuqtalarida olib borilib, natijada algofloraning 7 bo‘lim, 16 sinf, 48 tartib, 78 oila va 153 turkumga mansub 289 tur hamda 9 tur xillari aniqlandi.

Suvo‘tlar hayotiy shakllariga ko‘ra ekologik guruhlarga ajratilib, bentos turlar 139 ta (46,64%) bilan ustunlik qilgani, plankton-bentos 105 ta (35,23%), plankton 38 ta (12,75%) va perifiton turlar 16 ta (5,36%) ni tashkil etgani aniqlandi (7-jadval). Bu holat suv oqimi tezligi va substrat xususiyatlarining algoflora shakllanishiga kuchli ta’sirini ko‘rsatadi.


7-jadval

Suvo‘tlar turlarining suvining sho‘rlanish darajasiga ko‘ra ekologik guruhlari

Bo‘lim	Atrof-muhit guruhlari				
	Per	P	P-B	B	Jami
Cyanobacteria	5	11	38	29	83
Euglenophyta	-	1	4	-	5
Dinoflagellata	-	4	1	-	5
Heterokontophyta	4	6	36	83	129
Chlorophyta	6	14	17	12	49
Charophyta	1	2	9	13	25
Rhodophyta	-	-	-	2	2
Jami	16	38	105	139	298

Suvning sho‘rlanish darajasi bo‘yicha o‘tkazilgan bioindikatsion tahlil natijasida algofloraning asosiy qismini indifferent turlar tashkil etib, ular 149 tur (73,39%) ni qamrab oldi. Galofil, mezogalob, galofob va oligogalob turlar kamroq ulushga ega bo‘lib, bu Norin daryosi quyi oqimida suvning past darajada minerallashganligini tasdiqlaydi (5-rasm).

Shuningdek, suvning pH muhitiga nisbatan munosabatiga ko‘ra algoflora tarkibi ilk bor tahlil qilinib, 185 tur (62,08%) ekologik guruhlarga ajratildi. Indifferent va alkalifil turlarning ustunligi daryo suvining kuchsiz ishqoriy muhitga ega ekanligini ko‘rsatdi. Umuman olganda, Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining ekologik tarkibi suvning fizik-kimyoviy xususiyatlariga sezgir tarzda shakllanishi bilan tavsiflanadi.



5-rasm. Suvning sho‘rlanishga ko‘ra ekologik guruhlari.

Dissertatsiyaning “**Indikator-Saprob suvo‘tlarining tarqalishi va ularni suvning ekologiya-sanitariya holatini aniqlashdagi ahamiyati**” deb nomlangan beshinchi bobida Norin daryosi quyi oqimi havzasida uchraydigan indikator-saprob suvo‘tlarning taksonomik tarkibi, oqim va mavsum bo‘yicha tarqalishi hamda ular asosida suvning ekologiya–sanitar holatini baholash masalalari yoritildi. Tadqiqot natijalari saproblik zonalar dinamikasi orqali daryoda organik ifloslanishning oqim bo‘ylab ortib borishi va suv sifati sinflarining bioindikatsion mezonlar bilan aniqlanishini ko‘rsatadi.


Ushbu bobning “**Indikator – saprob suvo‘tlarining taksonomik tahlili va oqim bo‘ylab tarqalishi**” deb nomlangan 5.1 bo‘limida Norin daryosi quyi oqimi havzasida indikator–saprob suvo‘tlarning taksonomik tarkibi va oqim bo‘ylab tarqalishi bioindikatsiya usuli asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, umumiy algofloraning 298 tur va tur xillaridan 96 ta indikator-saprob takson (92 tur, 4 tur xili) aniqlanib, ularning ulushi 32,21 % ni tashkil etdi. Indikator-saprob suvo‘tlar 6 bo‘lim, 12 sinf, 33 tartib, 45 oila va 65 turkum doirasida jamlangan bo‘lib, ularning taksonomik tarkibi 8-jadvalda keltirildi. Tahlil natijasida Heterokontophyta bo‘limi 49 tur (51,04 %) bilan yetakchi ekani, undan keyin Cyanobacteria (21 tur; 21,87 %) va Chlorophyta (17 tur; 17,70 %) ustunlik qilishi aniqlandi.

8-jadval

Norin daryosi quyi oqimi havzasi indikator – saprob suvo‘tlarining umumiy taksonomik tarkibi.

Suvo‘tlar bo‘limlari	Sinf	Tartib	Oila	Turkum	Tur	Tur xili	Jami tur va tur xillari	%
Cyanobacteria	1	8	11	13	21	-	21	21,87
Euglenophyta	1	1	2	4	4	-	4	4,16
Dinoflagellata	1	1	1	1	1	-	1	1,04
Heterokontophyta	4	14	19	30	45	4	49	51,04
Chlorophyta	4	7	9	14	17	-	17	17,70
Charophyta	1	2	3	3	4	-	4	4,16
Jami	12	33	45	65	92	4	96	100

Indikator-saprob turlarning daryo va undan suv oluvchi kanallar bo'yicha tarqalishi o'rganilib, Norin daryosida 95 ta, Katta Farg'ona kanalida 84 ta, Shimoliy Farg'ona kanalida 80 ta, Katta Namangan kanalida 78 ta va Katta Andijon magistral kanalida 65 ta indikator-saprob tur qayd etildi (6-rasm). Oqim bo'yicha tahlillar daryoning yuqori qismida ksenosaprob va oligosaprob turlar ustunligini, o'rta oqimda β - va α -mezosaprob turlar ko'pligini, quyi oqimda esa β -mezosaprob hamda ayrim polisaprob turlar uchrashini ko'rsatdi. Bu holat Norin daryosi suvining ekologiya-sanitariya holati oqim bo'ylab tozadan o'rtacha ifloslangan zonaga tomon o'zgarib borishini tasdiqlaydi.



6-rasm. Indikator – saprob suvo'tlarining oqim bo'ylab tarqalishi.

Dissertatsining “**Indikator – saprob suvo'tlarining yil fasllarida rivojlanish dinamikasi va suv sanitariya holatini aniqlashdagi ahamiyati**” deb nomlangan 5.2-bo'limda Norin daryosi quyi oqimi havzasida indikator-saprob suvo'tlarning yil fasllari bo'yicha rivojlanish dinamikasi va ularning suvning ekologik-sanitariya holatini baholashdagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, indikator-saprob turlar eng ko'p bahor (59 tur) va yoz (72 tur) fasllarida, eng kam esa qish faslida (29 tur) qayd etildi, bu holat muhit omillarining mavsumiy o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Barcha fasllarda turlar soni jihatidan Heterokontophyta (diatom suvo'tlar) yetakchi bo'lib, ular suv sifati o'zgarishlariga eng sezgir guruh ekanligi aniqlandi.

Indikator–saprob turlarning saproblik zonalari bo'yicha taqsimlanishi tahlili natijasida ksenosaprob (13 tur), oligosaprob (22 tur), β -mezosaprob (44 tur), α -mezosaprob (19 tur) va polisaprob (2 tur) guruhlar aniqlanib, ularning nisbati keltirildi. Hisoblangan saproblik indeksi ($S = 1,30-1,78$) Norin daryosi quyi oqimi suvlarining β -mezosaprob zona, ya'ni “qoniqarli toza” sanitariya holatiga mansub ekanligini ko'rsatdi. Umuman, bo'limda indikator–saprob suvo'tlarning mavsumiy dinamikasi suvning ekologiya–sanitariya holatini baholashda ishonchli va yuqori aniqlikka ega biologik mezon ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

XULOSALAR

1. Norin daryosi havzasi quyi oqimidan floristik, sistematik, morfologik va molekulyar-genetik tahlillar asosida 7 bo`lim, 16 sinf, 48 tartib, 80 oila va 153 turkumga mansub 298 tur va tur xillarining (289 tur, 9 tur xili) floristik ro'yhati tuzildi.

2. Norin daryosi quyi oqimi algoflorasi taksonomik tahlil qilinib, uning tarkibida O'zbekiston va Markaziy Osiyo suv havzalari algoflorasi uchun yangi bo'lgan 20 ta tur aniqlanib, ular 4 ta bo`lim, 6 ta sinf, 10 ta tartib, 14 ta oila va 17 ta turkumga mansub ekanligi ilk bor ilmiy jihatdan asoslab berildi.

3. Norin daryosi quyi oqimi algoflorasining strukturaviy, biomorfologik va biologik spektri chuqur tahlil qilindi. Klaster va qiyosiy tahlillar asosida algofloraning ichki tuzilishi, dominant va subdominant guruhlari aniqlanib, klaster va qiyosiy tahlillar Norin daryosi algoflorasining boshqa mintaqa suv havzalariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi.

4. Norin daryosi quyi oqimi algoflorasi tarkibida bir oz minerallasgan, neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitga moslashgan, jumladan kosmopolit turlar ustunlik qilishi aniqlanib, bu havza algoflorasining o'ziga xos ekologik-geografik sharoitda shakllanganligini ko'rsatadi.

5. Algofloraning biomorfologik tahlillari amalga oshirilgan va buning natijasida yetakchi polimorf taksonlarning biomorfologik va biologik spektri to'liq tahlil etildi.

6. Algoflorada tur va tur xillari soni yoz mavsumida eng yuqori (195 tur), qish mavsumida esa eng past (59 tur) ko'rsatkichlarni tashkil etib, bu holat suv va havo haroratining o'zgarishi, suvning tiniqligi, gidrodinamik rejim, mineral tarkib hamda biogen elementlar miqdorining mavsumiy o'zgarishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

7. Norin daryosi quyi oqimida saproblikni ko'rsatuvchi indikator suv o'tlarning 96 turi aniqlanib, ular orasida β -mezosaprob va oligosaprob turlar ustunlik qilishi qayd etildi. Hisoblangan o'rtacha saproblik indeksi 1,30–1,78 ni tashkil etib, daryo suvi β -mezosaprob zona, suv sifati bo'yicha esa III sinf – o'rtacha ifloslangan (qoniqarli toza) suvlar toifasiga mansub ekanligini ko'rsatdi.

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА PhD.03/2025.27.12.B.22.05**

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ИКРАМОВ НУРИДДИН БОХОДИРОВИЧ

АЛЬГОФЛОРА БАССЕЙНА НИЖНЕГО ТЕЧЕНИЯ РЕКИ НАРЫН

03.00.05 – Ботаника

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2023.4.PhD/B304.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.namdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Тожибоев Шаробитдин Жамолович
кандидат биол.наук, доцент

Официальные оппоненты:

Тургинов Орзумат Турдиматович
доктор биологических наук, ведущий научный сотрудник

Тошпулатов Йигитали Шавкатиллаевич
доктор философии по биологическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Национальный университет Узбекистана

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2026 года в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.B.22.05 при Наманганском государственном университете. (Адрес: 160107, г. Наманган, ул. Бобуршох, дом. 161. Тел.: (+99869) 228-85-01; факс: (+99869) 228-85-02, e-mail: info@namdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета (зарегистрирована за № _____). Адрес: 160107, г. Наманган, ул. Бобуршох, д. 161. Тел.: (+99869) 228-85-01.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года.
(реестр протокола рассылки № ____ от «_____» _____ 2026 года)

А.Э. Зайнабидинов

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

Х.Р. Хошимов

Ученый секретарь научного совета, по присуждению ученых степеней, PhD по биологическим наукам

Д.Б. Дехконов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.б.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в мировом масштабе вопросы обеспечения экологической устойчивости бассейнов трансграничных рек, охраны водных ресурсов и их рационального использования являются одними из актуальных научно-практических проблем. В условиях изменения климата, резкого увеличения хозяйственного использования водных ресурсов, а также воздействия промышленных и сельскохозяйственных сточных вод особую значимость приобретает углублённое изучение гидробиологических процессов, протекающих в речных экосистемах, в частности формирования и трансформации альгофлоры, а также использование водорослей для мониторинга влияния техногенных источников загрязнения водных объектов.

В мировом научном сообществе проводятся актуальные исследования, направленные на рациональное и устойчивое использование водных ресурсов, обеспечение экологической устойчивости естественных открытых водоёмов и сохранение их биологического разнообразия. Усиление антропогенных и техногенных факторов приводит к существенным изменениям гидрохимических показателей и биологических процессов в речных экосистемах, что, прежде всего, отражается на составе, структуре и особенностях развития альгофлоры. В связи с этим особое внимание уделяется комплексному исследованию альгофлоры рек с целью научно обоснованной оценки современного экологического состояния водных экосистем.

В Республике последовательно развиваются научные исследования, направленные на изучение альгофлоры рек и оценку экологического состояния водоёмов на основе водорослей. В региональном разрезе проводится анализ альгофлоры водных экосистем, а также на научной основе выявляются экологические факторы, влияющие на формирование и распространение водорослей. В частности, в рамках реализации задач, определённых Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ–60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»¹, предусматривающих совершенствование механизмов оценки загрязнения окружающей среды, усиление системы экологического мониторинга и прогнозирование негативных процессов, особое научно-практическое значение приобретает комплексное изучение альгофлоры нижнего течения реки Нарын — одной из важнейших водных артерий Ферганской долины — на основе современных альгологических и гидробиологических подходов. При этом важными направлениями являются определение степени загрязнения воды органическими веществами на основе таксономического состава водорослей, выявление индикаторно-сапробных

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ–60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

видов, а также изучение закономерностей их распространения во взаимосвязи с факторами внешней среды.

Диссертационное исследование в определённой степени направлено на реализацию задач, предусмотренных Законом Республики Узбекистан от 14 сентября 2017 года № 446 «Об охране природы», Стратегией действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан, постановлением Государственного комитета Республики Узбекистан по экологии и охране окружающей среды от 26 июня 2018 года № 6 «О государственном контроле в области охраны окружающей среды», а также Указом Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» и другими нормативно-правовыми актами, регуливающими данную сферу деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением V развития науки и технологий Республики Узбекистан - «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. Фундаментальные и классические исследования альгофлоры различных водоёмов Средней Азии впервые были проведены Хирном (Hirn, 1900). В дальнейшем исследования альгофлоры водных объектов осуществлялись В. Сладецеком (V. Sládeček, 1961, 1973), Зареи Дарки (Zarei Darki, 2009), Д. Олдингом (D. Olding, 2000), а также в странах СНГ — М. Гололобовой (2000), М. Т. Бобоёвым (2018), М. С. Куликовским (2016), С. С. Бариновой, Е. П. Белоус и П. М. Саренко (2019).

В Республике Узбекистан альгофлора Аральского моря, бассейнов рек Сырдарья и Амударья была изучена Остенфельдом (Ostenfeld, 1908). Эколого-флористические исследования альгофлоры водоёмов Узбекистана были проведены А. М. Музаффаровым (1965), А. Эргашевым (1964), К. Мусаевым (1960), Х. Алимджановой (2007), А. Темировым (1996), Х. Эргашевой (2017), М. Юлдашевой (2018, 2025), З. Исматовой (2018), Й. Тошпулатовым (2019). Исследования почвенных водорослей выполнены Ю. Тухтабоевой (2019, 2025), С. Мамасолиевым (2020), О. Хусановыми (2025).

